


Gripp

{


Abidova Zarina
112 guruh I pediatriya



- ⌘ Gripp – bu Internet va OAV (Ommaviy Axbotor Vositari)dagi eng ko'p muhokama etiladigan mavzulardan biridir. Nomigina o'zgaradi xolos. Boshida “parranda “, keyin “cho'chqa” grippi. Keling avval , gripp nima ekanligini aniqlab olaylik.
- ⌘ Gripp – bu virus. Virusning o'zi nima? Virus – bu organik materiyaning yashash (hayot kechirish) shakli. Va shu bilan birga eng ko'p tarqalganlardan biridir.
- ⌘ Vikipediyada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra : “Okeanda viruslarni yuz minglab turi yashashadi, shulardan asosiy ko'pchiligi ta'riflanilmagan va ayniqsa o'rganilmagan. Viruslar, tirik organizmlarning ko'payish jarayonida muhim ro'l o'ynaydi.”

⌘ Gripp nafas yo'llarining o'tkir infeksiyon kasalligi bo'lib, gripp virusi orqali kelib chiqadi. O'tkir respirator virusli infeksiya guruhiga kiradi (O'RVI). Vaqti-vaqti bilan emidemiya ko'rinishida tarqaladi. Hozirgi paytgacha virusli grippning o'zaro farq qiluvchi, 2000 dan ziyod turi (varianti) aniqlangan.





❧ Gripp virusi yumaloq shaklda bo'lib, diametri 80-120 nm ga teng, markazda oqsil qobiqli RNK (PHK) – parchalari mavjud, qobiq yuzasida gemagglyutinin (H) (гемагглютинин) va neyraminidaza (N) (нейраминидаза) lardan tashkil topgan mayda kiprikchalar bilan qoplangan. Gemagglyutinin ga (H) (гемагглютинин) javoban ishlab chiqariladigan antitelalar, immunitetning ma'lum bir qo'zg'atuvchiga qarshi turadigan asosini tashkil etadi.

❧ Virus va gripp tushunchalari nima ekanligini bilib oldik, endi esa cho'chqa grippini aniqlasak



✂ Grippning bu turi ilk bor cho'chqalarda, keyinchalik mutatsiyalanib parranda va odamlar orasida tarqala boshladi. Cho'chqa grippining birinchi ommaviy tarqalashi 2009-yilning aprel-may oylarida Meksika va AQSH da kuzatildi. Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti cho'chqa grippining odamdan-odamga yuqish xavfi borligidan xovotirga tushdi. Shuni bilish zarurki, cho'chqa grippining birinchi belgilari oddiy grippning belgilariga o'xshash. Bular – bosh og'rig'i, haroratning ko'tarilishi, yo'tal, qayd qilish, ich ketishi va burun oqishi.

- ✂ Shuning uchun, o'zingizni yomon xis qilsangiz, hech nimani kutmasdan darhol shifokor qabuliga boorish kerak. Masalan, tuman poliklinikasiga. Yoki mustaqil davolanish chora-tadbirlarini amalga oshirish kerak. Niqob taqgan hamkasabalar yoki kursdoshlar ustidan kulish mumkin, lekin bu ishni niqobda bajarish maqsadga muvofiqdir =)
- ✂ Gripp qahramonlarni yoqtirmaydi. Grippning qaysi turi bilan kasallanma, u sog'liqqa zarar va sen qanchalik kuchli bo'lmagin, o'z vaqtida davolanish juda muhimdir.
- ✂ Cho'chqa grippi asorati o'lim holatiga keltirishiga qaramay, sen sarosimaga tushma. Shuni qayd etish lozimki, cho'chqa grippidagi og'ir holatlar va o'limlar soni, oddiy mavsumiy grippdagi o'rtacha ko'rsatgichlar oshmaydi. Bu tasdiqlangan ma'lumot.





✂ Shuning uchun ommaviy sarosimaga tushmasdan, o'zingiz va yaqinlaringiz sog'ligiga qayg'uring. Dokadan tayyorlangan niqob taqish, piyoz va sarimsoq piyozini iste'mol qilish, iloji boricha ko'proq suyuqlik ichish, tez-tez qo'lni yuvish va boshqa davolanish muolajalarini boshlash kerak.

❧ Dori-darmonlardan
Озельтамивира (Тами-Флю)
ning virus va uning tarqalishiga
qarshi samaradorligi isbotlangan.
Bu dori yo'qligida butun jahon
sog'liqni saqlash tashkiloti
Занамивир (Реленза)
preparatini qabul qilishni
maslahat beradi. Haroratni
tushurish borasida muttaxislar
tarkibida ibuprofen (ибупрофен)
va parasetamol (парацетамол)
bor bo'lgan dorilarni maslahat
berishadi. Kayfiyatni tushirmang
va kasal bo'lmang



- ⌘ Gripp sog'lom odamga havo tomchilari (tupuk) orqali ,
- ⌘ Gaplashganda yoki yo'talganda va aksa urganda o'tadi.
- ⌘ Gripp yuqqan bemorda tana harorati ko'tarilib, bosh, qo'l va oyoq mushaklarida og'riq paydo bo'la boshlaydi. Bemorni ko'zning yoshlanishi, burun oqishi va tomoq og'rig'i bilan birga quruq yo'tal bezovta qiladi. Quvvatsizlik kuzatilib, ba'zi hollarda burun qonashi ham mumkin.
- ⌘ Gripp bilan kasallangan bemorlarga o'z vaqtida davo choralari ko'rilmasa, quyidagi asoratlarni kelib chiqishin mumkin:
 - ⌘ Zotiljam (o'pka shamollanishi);
 - ⌘ O'pka pardasining yallig'lanishi;
 - ⌘ Quloqning yallig'lanishi;
 - ⌘ Miya pardasi va boshqa a'zolarining yallig'lanishi.



❧ GRIPP KASALLIGI BELGILARINI O'ZNGIZDA
KUZATSANGIZ, ZUDLIK BILAN SHIFOKORGA
❧ MUROJAAT QILING.

❧ Shifokor ko'rgunga qadar suyuqliklar (asal choy, limon sharbati,
❧ Na'matak damlamasi) hamda parasetamol ichish tavsiya etiladi.

❧ KASALLIKNING OLDINI OLISH CHORALARI:

- ❧ Ishxonalarda, maktablarda, oilada va boshqa joylarda kasal bilan muloqotda bo'lganlar remantadin tabletkasini ichishi;
- ❧ Burun ichiga kuniga 2-3 marta 0,25% oksolin surtmasini surtishi;
- ❧ Kuz-qish oylarida har kuni geksavit, undevit kabi polevitaminlardan 1-2dona ichishi;
- ❧ Uyushgan jamoalarda (maktab, bog'cha, konsert zallari, kinoteatr, umumiy transport vositalari) 4 qavatli dokadan tikilgan niqob taqib yurish tavsiya qilinadi;
- ❧ Kuz oylarida tibbiyot muassasalarida grippga qarshi emlash o'tkaziladi



- ⌘ YODDA TUTING!
- ⌘ Kasallikning oldini olishda:
- ⌘ Tanani chiniqtirish;
- ⌘ Badantarbiya bilan muntazam shug'ullanish;
- ⌘ To'g'ri va sifatli ovqatlanish;
- ⌘ Ko'proq ochiq havoda yurish;
- ⌘ Sovuq kunlarda issiq kiyinish muhim ahamiyatga ega.